

JADIDLAR YETAKCHISI- MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY

Hasanova Barnoxon Voxidjon qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Mediamenejment yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi, ota- bobolari haqida hamda uning publisistikasi haqida ma‘lumot berildi. Shuningdek, U zamonaviy ta‘lim adabiyot va matbuot orqali xalqni savodsizlikdan chiqarishga, milliy ongini uyg‘otishga qaratilgan asarlari tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, dramaturg, qoribegim, dahriy, rahnoma, mustaqillik, ma‘rifatparvar.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha-jadid-yangi) XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiysiyosiy ma‘rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80- yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillarida O‘rta osiyoda tarqaladi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilik "burjua-liberal, millatchilik harakati" deb ta‘rif berilgan. Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev Miromonovich 2023-yil 22-dekabrdagi nutqidan. Prezident yaqin kunlarda o‘tgan asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ma‘rifiy harakat vakillari - jadidlar merosini o‘rganish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. "Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadiriylar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur" dedi Prezidentimiz. "Ma‘rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarollik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi

tabiiy", -dedi Shavkat Mirziyoyev. "Bu kingadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki, ularning g'oya va dasturlari yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir" -dedi Shavkat Mirziyoyev. Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatorida siyosats hunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanadi. Behbudiyning to'liq ismi- sharifi Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja bin Solihxo'ja bin Niyozxo'ja. Katta bobolari turkistonlik xo'ja Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. Mahmudxo'janing otasi Behbudxo'janing bobosi - Niyozxo'ja asli Urganchlik bo'lgan. Taqriban bir asr muqaddam Samarqandga kelib qolgan. Bundan

chiqdi, XVIII asrning boshlari. Bu ko'chish tarixiy holatlarga borib taqaladi. Hijriy XII asr o'rtalarida Turkiston o'lkasidagi amir va xonlar o'rtasidagi o'zaro qirg'inbarot to'qnashuvlar oqibatida Samarqand shahri birmuncha tang ahvolda qoladi. Shunda Amir Shohmurod Samarqandni qaytadan obod etishga kirishadi. Yaxshi niyatda u o'lkaning turli muzofotlardan, yaxshilarini Samarqandda yashashga taklif etadi. Mavjud ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ojiz edi, shunga qaramay, yoshligidanoq hofizi Qur'on edi. Samarqandda u shu qadar shuhrat, obro'-e'tibor qozondiki, el-yurt orasida Qori Niyozxo'ja Urganchiy ismi bilan e'zoz-e'tiborga sazovor bo'ldi. Niyozxo'jadan Solihxo'ja ismli yakka o'g'il qoldi. Murattab qorining farzandi ham valine'mati izidan bordi, ya'ni arabiy va islomiy ta'lim oldi, masjidda imomlik qildi. Solihxo'jadan o'g'il Behbudxo'ja va opa-singil Huriniso bilan Najimaniso farzandlar qolishdi. Solihxo'ja uchala farzandi arjumandining xat-savodini chiqarish bilan astoydil shug'ullanadi. Tabiiy, ularni Qur'on ilmi bilan ziynatlanadi. Huriniso Samarqandda "qoribegim" laqabi ostida dong taratadi, otasi vafot etgach, Behbudxo'ja ushbu singlisi huzurida qorilik

saboqlarini davom ettirdi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o'rganishga kirishib, islom tarixi va nazariyasi bilan shug'ullana boshlaydi. 1902 -yilda Makkaga borib, xo'ja va mufti unvonlariga ega bo'lib qaytadi. So'ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo'lib, Ovrupo madaniyati bilan qiziqadi. 1912-1913- yillarda Behbudiy

Samarqandda "Samarqand roʻznomasi", "Oyina" jurnallari chiqishida jonbozlik koʻrsatadi. 1914 -yili Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar oʻquv qoʻllanmalari keltiradi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq turli toʻsiqlarga uchrab, "jadidchilik rahnomasi", "dahriy" deb eʼlon qilinadi. U bir qator jahon tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi boʻlish bilan birga umuminsoniy madaniyatning tolmas targʻibotchisi ham boʻlgan. Uning maqolalari 1901-yildan boshlab "Turkiston viloyatining gazetasi", "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Osiyo", "Hurriyat", "Turon", "Sadoyi Turkiston", kabi roʻznoma va oynomalarda chop etila boshlangan. Mahmudxoʻja Behbudiy 1919-yili Qarshida qatl qilindi. Qarshi shahri 20-30-yillarida Behbudiy nomi bilan atalgan. Behbudiy 1956-yilga kelib oqlanadi. Mustaqillik yillarida u qoldirgan rang-barang adabiy-madaniy meros oʻz xalqi xizmatiga kirmoqda. S.Ayniy yozganidek: "Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida oʻzining ongi va insoniy qadr-u qimmatini bilgan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va maʼrifat uchun kurashga chorlab keladi". Behbudiy maʼrifatparvar, jadid, milliy uygʻonish davri targʻibotchisi. U zamonaviy taʼlim, adabiyot va matbuot orqali xalqni savodsizlikdan chiqarishga, milliy ongini uygʻotishga harakat qildi. Behbudiy oʻz asarlari va islohatlari bilan ilm- maʼrifatni rivojlantirishga katta hissa qoʻshgan. Mahmudxoʻja Behbudiyning "Ikki emas toʻrt til lozim" maqolasi 1914-yilda "Oyina" jurnali, 1- son, 12-14-sahifalarida chop etilgan va unda muallif oʻz davridagi ijtimoiy va maʼnaviy muammolarni koʻtarib chiqqan. Ushbu maqolada Behbudiy jamiyatning taraqqiyoti uchun taʼlim-tarbiya, ilm-fan va iqtisodiy rivojlanishni "toʻrt til lozim" (toʻrt zaruriy narsa) sifatida koʻrsatadi. Behbudiy xalqni ilm olishga undaydi. U savodasizlikning jamiyatni orqaga tortayotganini va xalq orasida oʻqituvchilar, maktablar yetishmayotganini taʼkidlaydi. Behbudiy bu maqolasi orqali xalqni uygʻonishga, ilm, fan, tarbiya, iqtisodiy rivojlanish va milliy birlikka eʼtibor berishga chaqiradi, u jamiyatdagi barcha tabaqalarning oʻz zimmasidagi masuʼliyatni anglashini istaydi. Xulosa, bugun bizlarga toʻrt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, yaʼni arabiy, forsiy, rusiy, ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur. Bu maqolasida xalqni birlashishga chorlagan, ilm olishga chorlagan. "Teatur nadur"

maqolasi ("Oyina" jurnali 29-son, 550-553-sahifasi) 1914-yil chop etilgan. Teatr nima deb savol berilganida, Behbudiy teatr ibratxonadur, teatr va'zxonadur, teatr ta'zir adabidir deb javob bergan. Teatr xuddi oyna kabidur deydi, unda hamma o'z aksini ko'radi deydi. Teatr urf-odatlarini, qabih va zararni oshkora ko'rsatuvchi bu teaturdur. Taraqqiy topmoqning eng birinchi sababi bu teatr deyilur. Teatrning yaxshi va yomon odatlarini sarrof va munaqqidi derlar. Odamlarning yaxshi yoki yomonligini teatrdan ko'rsatib berishadi. Teatrda hikoyat va yoinki nasihat kitoblarida ba'zi bir hodisani bayon qilinadi. Teatr orqali savodsiz odam ko'zi bilan ko'rib, ko'zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat oladi. Teatr bir maktabdir - deydi Behbudiy. Muharrirning asari yaxshi chiqsa, har kim uni tabriklaydi. Teatrda muharrirning o'zni qanchalik muhim bo'lsa, rol o'ynovchi aktyorlar ham muhim o'rin tutadi. Behbudiy sahna asarlaridan tushgan pullarga yangi maktablar tashkil etgan.

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlarimizni til o'rganishlari uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratib berilmoqda, bundan oqilona foydalanib davlatimizni yuksaltirish biz yosh avlodlarning burchimizdir. Maqolada o'sha davrga mos tarzda arab, turk, fors hamda rus tillari haqida so'z yuritiladi. Turk tilini turkiy xalq bo'lganliklari uchun, fors tilini nazm va nasrni o'rganmoq uchun, arab tilini shar'iy va diniy bilimlar o'rganishlari uchun, rus tilini rus donishmandlarining asarlarini o'qish uchun bilishlari kerakligi aytilgan. Shu holatni hozirgi kunga bog'laydigan bo'lsak, rus, ingliz, arab hamda o'zimizning milliy tilimizni bilishimiz kerakligi bugunning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda. Chunki ingliz tili hozirgi kunda xalqaro tillardan biri hisoblanib, ko'p davlatlar uchun davlat tili hisoblanadi. Chet elga chiqqanda, yoki sayyohlar va hamkorlar bilan uchrashganda so'zlashish uchun, foydalanish uchun, arab tiliasosan dinimiz va muqaddas kitobimizni o'qish, rus tili esa hamkorlikda va zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalanish uchun ahamiyatlidir. Shu o'rinda milliy tilimizga to'xtaladigan bo'lsak, har bir inson o'zining millatiga tegishli bo'lgan davlat tilini chuqur o'rganmog'i va uni yuksalishiga, rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishi lozim. Ko'rib turganimizdek,

Behbudiyning barcha maqolalarining asosiy g'oyasi millatni rivojlanishi uchun zarur bo'lgan til va jamiyatni kemirguvchi illatlardan tozalash kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bizni kemirguvchi illatlar hisoblangan to'y va xashamlarni ixchamlashtirish, shu sababli millatni yemirilishini oldini olish mumkin. Yana o'zimizga kerakli bo'lgan tillarni o'rganib, chet davlatlarda malakalarimizni oshirib, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan holda davlatimizni yuksaltirish va rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishiga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xurshid Do'stmuhammad. "Yuz yillik qotillik yoxud Mahmudxo'ja Behbudi haqida zamonaviy detektiv asar" :tarixiy-hujjatli-ma'rifiy qissa. /X.D Do'stmuhammad.-Toshkent:Yoshlar matbuoti,2024,

2.Dilnavoz Yusupova , Adabiyot :universal q 'llanma /D.Yusupova.Qayta nashr. -Toshkent :Akademnashr, 2020,-672 b, 311-314- betlar. Brown, H. D.

3. Adabiyot darslik- majmua /B.To'xliyev [va boshq.], -Toshkent : "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.-184 bet. 3-4- betlar.

4. <https://www.gazeta.uz>

5. <https://uz.wikipedia.org>.